



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Ro'ziyeva Nasiba Jo'raqulovna

*Kattaqo'rg'on tuman 17-IDUM
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA INNAVATSIYON FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innavatsion faoliyatini rivojlantirish xususiyatlari ko'rib chiqilgan. O'qituvchilarning pedagogic mahorati va ijodiy salohiyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik shartlari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innavatsion faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, ijodkorlik, pedagogik mahorat, ta'lim-tarbiya.

Bizga ma'lumki, shunday ishlar borki, ularni bugundan kechiktirib bo'lmaydi, yoki hamma davrda ham dolzarbligini yo'qotmaydi. Shu nuqtai-nazardan ham ta'lim-tarbiya sohasining rivojini ta'minlaydigan konsepsiyalarga muhtojlik seziladi. Zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Bu kabi texnologiyalar va innovatsiyalar o'z - o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning pedagogik malakasiga bog'liq jarayon hisoblanadi. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning ma'suliyati va faolligini oshirmasdan ta'limda bir qadam oldinga siljib bo'lmaydi. Bunda ijtimoiy-pedagogik tizimni takomillashtirish va tarbiya jarayonida katta avlod tajribasini yanada oshirish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan innavatsion axborot almashuvida dastur va texnologiyalaridan foydalanib, ta'limning



samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan-kunga kuchayishi uchun qulay imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga bugungi yosh avlod axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega ekanligini ham inobatga olishimiz kerak.

Ta‘lim tizimidagi innovatsiyalarni qo‘llanilishiga ko‘ra shartli ravishda quyidagilarga bo‘lish mumkin:

-umumiy (zamonaviy ta‘limning global konsepsiyalari: o‘quv tarbiya jarayonini optimallashtirish, insonparvarlik va amaliy texnologiyalar, pedagogik jarayonlarni tashkil qilish va boshqarish sohasida, axborot texnologiyalari);

-alohida (zamonaviy ta‘lim paradigmasi sharoitida yaratilgan va bevosita ta‘lim tizimida qo‘llaniladigan mualliflik yangiliklari).

Ta‘lim va tarbiya sohasida eng keng tarqalgan va eng diqqatga sazovor innovatsiyalar quyidagilar:

-ta‘limning faoliyatli paradigmasiga o‘tish, ta‘limga kompetentli yondoshuvni tadbiq etish orqali aks etadi, chunki an‘anaviy bilimga, fan va texnologiyaning ma‘lum bo‘lgan rivojlanish darajasi doirasida o‘rganish bilan chegeralanishga asoslangan yondoshuv, jadal rivojlanayotgan jamiyat talablariga javob bermaydi (ta‘lim mazmuni);

-ta‘lim jarayonini innovatsion rivojlantirishning asosiy omili bo‘lgan yangi ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash orqali tashkil etish (metodikalar, texnologiyalar, metodlar, ta‘lim vositalari);

-umumiy ta‘limning global ta‘lim tizimining ochiq, individual, egiluvchanlik kabi talablariga javob beradigan talablariga javob beruvchi inson hayoti davomida uzluksizlik davom etadigan kasb va mutaxassisliklarga yo‘nalishlarini (ta‘lim shakllarini tashkil etish);

Metodik–yo‘naltirilgan innovatsion jarayonlar asosini u yoki bu ta‘lim texnologiyasi yoki metodikasini qo‘llash tashkil etadi, masalan:

- zamonaviy axborot texnologiyasini qo‘llash;
- ta‘lim mazmunida integratsiya tamoyilini qo‘llash;
- rivojlantiruvchi ta‘lim;
- muammoli ta‘lim;
- dasturlashtirilgan ta‘lim;
- modulli ta‘lim.

Metodik–yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar doirasida pedagogning kasbiy amaliy faoliyati, tayyorgarligi, kompetentligi va pedagogik mahoratning zaruriy sharti zamonaviy ta‘limning tashkil etishdagi quyidagi yondoshuvlarda o‘z aks etadi :

-talaba shaxsiga qaratilgan yondoshuv. Talabalarning shaxsiy rivojlanishi uchun metod va vositalarni tanlashda hamkorlik, yordam, tushunish, o‘zaro hurmat va o‘zaro qo‘llab quvvatlash strategiyalari qo‘llaniladi;

-faoliyatga asoslangan yondoshuv davlat ta‘lim standartlarining bajarilishiga amaliy yondoshuvga asoslanadi. Bilimlarni egallashda talabalar faoliyatini tashkil eta olish, ya‘ni bilimlar amaliy qo‘llanish orqali egallanadi;



-ta'limga kasbiy yo'naltirilgan (kompetentli) yondoshuv talabalarda kasbiy kompetentlikni va kasbiy yo'naltirilganlikka asoslanishi bilan namoyon bo'ladi;

-akmeologik yondoshuv innovatsion ta'limni tashkil etishda talabalarda ijodiy fikrlash, o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini nazorat qilishni tarkib toptirish uchun ta'limning yangi va takomillashgan metod va vositalarini yaratishi orqali mazmunga qaratilgan yondoshuv bilan chambarchas bog'liq bo'ladi;

-kreativ rivojlantiruvchi yondoshuv talabalarda maxsuldor tafakkurni, faoliyatga ijodiy yondoshuvni, ijodkor shaxs qobiliyatlarini va ilmiy-ijodiy malaka va qobiliyatlarini rivojlantiradi;

Muammoli yo'naltirilgan innovatsion jarayonlar, nomidan ko'rinib turibdiki, bu ta'lum muammolarni hal etishga qaratilgan vazifalar bo'lib, raqobatbardosh mutaxassisni shakllantirishni maqsadini ko'zlaydi. Talabalar quyidagilarni bilishlari lozim:

- o'zlarining shaxsiy va ijtimoiy mavqelarini aniqlay olish; - mustaqil qarorlarni qabul qilishdagi shaxsiy javobgarlik, erkinlik va qaltislikni xis qilish;

-o'z qobiliyat va imkoniyatlarini qo'lay vaziyatda maksimal tarzda jamlay olish.

Zamonaviy ta'limning dolzarb muammosi "ijtimoiy raqobatbardoshlik"dir. Bu tushuncha o'zida kasbiy etuklikni, malaka oshirish imkoniyatiga egalikni, shaxsning ta'lim olganlik darajasi, innovatsiyalarni qabul qila olish qobiliyati, kasbiy faoliyat sharoitini qiyinchiliklarsiz o'zgartira olish va mehnatning yanada foydaliroq turiga o'ta olish qobiliyatini, ijtimoiy mavqeyini va bilim darajasi bilan belgilanuvchi ijtimoiy mobilligini o'zida mujassamlashtiradi. Ya'ni, zamonaviy sharoitlarda raqobatbardosh mutuxassisni shakllanishi faqatgina ta'lim jarayoniga muammoli va metodik yo'naltirilgan, umumiy innovatsion jarayonlarning talablariga javob beradigan, dastur va konsepsiyalar bilan asoslangan innovatsiyalarni jalb etish orqaligina amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidova G. Pedagogning innovatsion faoliyati. Boshlang'ich ta'limda integratsiyaviy –innovatsion yondoshuvlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. TDPU - 2019 yil.

2. Doniyarov M, Ahmedova M. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammolar va echimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallar. – Jizzax. 2019 yil.

3. Doniyarov M., Mamaraximova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy madaniyatini shakllantirishda innovatsion yondoshuvning ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI. 2020 y.

4. Doniyarov M. Ona tili darslarida multimediya vositalaridan foydalanish samaradorligi. Архив 7, Научных Публикаций JSPI. 2020 y.

5. Doniyarov M. Boshlang'ich sinf ona tili darslariga kompetensiyaviy yondoshuv haqida mulohazalar. Архив Научных Публикаций JSPI. 2020 y.